

## PEDAGOGIK JARAYONDA RASMLI KITOBLAR FENOMENI

Bolalar adabiyotini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy ehtiyojidir. Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yoshlar va bolalar orasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilayotgani, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-yanvarida qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi ham bejiz emas.

Ushbu Farmoyishning amalda ishlashi uchun ta'lif muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaas etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib chiqish; umumta'lif muassasalari "Bolalar kutubxonalariga" amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, o'quvchilarning milliy va jahon bolalar badiiy adabiyotlari durdona asarlariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, ularni kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, madaniyma'rifiy tadbirlarni ("Yosh kitobxon", "Kitobxon muktab", "Eng yaxshi kutubxonachi" va boshqalar) tashkil etishga ko'maklashish kabi maqsad va vazifalar ilgari surilgan [1]. Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbayi esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarida", deydi.

Kitobxonlik madaniyati qanchalik erta shakllansa, bolaning katta bo'lganida kitobxon bo'lish ehtimoli shunchalik ortadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aynan erta rivojlangan kitobxonlikning samarasini yuqori bo'lar ekan [2]. Ibn Sinoning bu borada bir gapi bor: "Tarbiyani bolani eng yosh paytidan boshlash kerak, zero unga yaxshi xulq odat bo'lib qolsin". Jahon kitob bozorini tahlil qilar ekanmiz, rivojlangan kitobxon mammakatlar kutubxonalarida bolalar adabiyoti doimo barcha kitoblar ichida katta salmoqni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Janubiy Koreyani misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, kutubxonalar, kitob do'konlari aynan maktabgacha yoshdag'i va boshlang'ich sinf bolalariga, ya'ni 3–13 yoshdag'i bolalarga va ularga mos har xil janrda-

gi kitoblarga to'la bo'ladi [3]. Bugun biz bolalar kitobxonligini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, o'qishni biladigan bolalardan emas, balki eng kichik yoshdag'i bolalarni ham inobatga olgan holda maqsad va vazifalarimizni belgilashimiz darkor.

Uzoq muddatli tadqiqodning ko'rsatishicha, bolaga kichikligidan kitob o'qib berilsa, u boshqa bolalardan to'rt karra ko'proq hayotiy imkoniyat va afzalliklarga ega bo'lar ekan [4]. Bolalar kichik yoshidan kitob o'qishga odatlansa, ulg'ayganda kitobdan rohatlanish ehtimoli, ularga kichikligidan ko'p kitob o'qib berilsa, keyinchalik matabda baland baholar olish imkonii ham ortar ekan [5].

Statistikaga ko'ra, dunyodagi eng yirik onlayn kitob do'koni hisoblanmish Amazonda aynan kichik yoshdag'i bolalarga sotiladigan kitoblar umumiylit kitoblar sotuvining nufuzli salmog'ini tashkil etar ekan. AQSh, Buyuk Britaniya kabi ta'lif va pedagogika sohasi kuchli rivojlangan, bolalar soni umumiylit xalq soniga nisbatan munosib ravishda 22% va 8% foizni tashkil qilgan mammakatlarda, 2022-yil hisobiga ko'ra, bolalar kitoblari sotuvni barcha kitoblar sotuvining deyarli 1/3 qismini tashkil etgan ekan [6]. Ya'ni sotilayotgan kitoblar bolalardan ham ko'proq. 2023-yil oxirida esa AQShda bolalar kitobi bozori 2,62 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bolalar kitoblari segmentida daromad ketma-ket 7 yil davomida o'sishi ko'zda tutilmoxda. Ushbu statistika raqamli jamiyat, yuqori texnologiyalar davrida kitob va kitobxonlik muhim emas, degan nazariyaga qarshi chiqmoqda [7].

Mamasoli Jumaboyevning ta'kidlashicha, "bolalar adabiyoti pedagogika bilan mustahkam bog'langan". Olimning tasniflashicha, bolalar adabiyototi pedagogika, psixologiya, fiziologiya, tabiatshunoslik, defektologiya, lingvistika, tilshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq. Zamonaviy kitoblar esa bunga yanada chuqurroq dalildir. Jahonning bugungi zamonaviy bolalar adabiyoti ilm-fan, tibbiyot, texnologiya, muhandislik, matematika, musiqa, teatr san'ati, san'at va boshqa ko'plab fanlar bilan o'zaro chambarchas bog'lanib ketgan.

Bugungi kunda bolalar kitoblari turli xil janr va texnik ko'rsatkichlarga ega. Ushbu maqolamiz doirasida biz O'zbekiston uchun nisbatan yangi janr – rasmli kitoblar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Kichik yoshdag'i bolalarga, albatta, rasmli kitoblar qiziq bo'la oladi. O'zbekiston bolalar adabiyoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak, maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun asosan ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol,

tez aytish kabi xalq og'zaki ijodlari haqida so'z yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun tabiat, vatan, odob, onaga muhabbat kabi mavzular haqidagi kitoblar bo'lishi, ushbu kitoblar rasmlarga boy bo'lishi kerakligi haqida ham aytildi. O'zbek bolalar adabiyoti tarixida folkloridan tashqari didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma'rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Bolalar adabiyoti tushunchasi, avvalo, turli yoshdagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan so'z san'atidir deb belgilangan. Bolalar adabiyotining maqsad va vazifalarini tahlii qilar ekanmiz, u yerda zamonaviy rasmi kitoblarning maqsadi bo'lmish bolada vizual tafakkurni rivojlantirish va bolalarning rasmlarni o'qish va rasmlarni muhokama qilish kabi qobiliyatlarini shakllantirish belgilanmagan.

Rasmi kitoblar bo'yicha olib borilgan keng tadqiqotlar XX asrning boshlariga to'g'ri kelib, ko'plab filologlar, pedagoglar rasmi kitoblarning bolaning rivojlanishidagi beqiyoq o'rni va samarali ahamiyati haqida so'z yuritishgan. Ular orasida rasmi kitoblar fenomeni rivojlanishi eng katta va chuqur tadqiqotlarni Buyuk Britaniyalik Peter Nodelman va Maria Nikolajeva olib borganligini alohida etish lozim.

*Rasmi kitob nima degani?* Bolalar adabiyoti bo'yicha eng ilg'or mamlakat hisoblanmish Buyuk Britaniyaning Oksford lug'atiga ko'ra: "Bolalar adabiyoti deb bolalar uchun maxsus yaratilgan yoki ularni qiziqtiradigan kitobлага aytildi. Bolalar adabiyoti turli janrlardan tashkil topgan bo'ladi: rasmi kitoblar, hikoyalar, she'riy to'plamlar, allalar, ertaklar va o'quv kitobları. Bolalar adabiyoti bolalar yoshiga mos kontent, til va rasmlardan iborat bo'lishi kerak. Uning maqsadi bolalarga ta'lim berish, rohat baxsh etish va ilhomlantirish bo'lishi kerak". Ya'ni, rasmi kitoblar bu bolalar adabiyotining alohida mustaqil bir janridir.

Rasmi kitoblar mutaxassis professor Nikolajevanig ta'rifiga ko'ra: "Rasmi kitoblarning san'at turi sifatidagi o'ziga xos xususiyati ikki darajadagi aloqa, vizual va og'zaki aloqaning kombinatsiyasiga asoslanadi" [8]. Nikolajeva rasmi kitoblarga izoh berar ekan, rasmi kitob matn bilan rasm, o'quvchi va ko'ruvchi orasida kreativ dialogni stimulatsiya qiladi, natijada vizual va verbal bilimlarni oshiradi, deydi. Korney Chukovskiy "bolalar uchun yozilgan har bir satr mazmuni asosida rasm chizish mumkin bo'lmog'i shart", deb e'tirof etadi [9]. Masalan, rasmi kitob illustratorlari rasmi kitobda ishlataladigan ranglar yordamida ramziy ma'nolarni, kayfiyatni, muhimlikni, rangga munosabatni ochib beradilar [10].

Rasmi kitoblarga berilgan kengroq ilmiy ta'rifda shunday deyilgan: "Rasmi kitob bu matn, illustratsiyalar, umumiy dizayn; ishlab chiqarish obyekti va tijorat mahsuloti; ijtimoiy, madaniy, tarixiy hujjat; eng muhim, bola uchun tajriba. San'at turi sifatida u rasmlar va so'zlarning o'zaro bog'liqligiga, ikkita qara-

ma-qarshi varaqning bir vaqtning o'zida ko'rsatilishiga va varaqning dramatikligiga bog'liq. "Rasmi kitoblar" dunyoda eng ko'p sotiladigan va pedagogik jarayonda eng ko'p ishlataladigan kitoblardir. Aynan rasmi kitoblar bolalarning kognitiv, emotsiyonal, ijtimoiy va kreativ rivojlanishiga ta'sir qilishi haqida ilmiy izlanishlar mavjud", deb ta'kidlaydi mutaxassis.

Nihoyat rasmi kitoblarni ulug'lash darajasiga olib kelgan Peter Nodelman ular haqida shunday deydi: "Rasmi kitoblar nafaqat bizga matn ayta olmagan mazmunni rasm bilan, rasm ayta olmagan mazmunni so'z bilan ifodalab beradi, balki yuqori darajadagi uyg'unlik orqali matn va rasmni lazzatlanish uchun kuchli manba sifatida namoyon qiladi [11]. Rasmi kitoblarda so'zlar detallarni berib keyin yaxlitlikka olib kelsa, rasmlar, aksincha, yaxlitlikdan detallarga e'tiborimizni qaratadi [12]. Umumlashtiradigan bo'lsak, rasmi kitob – bolanning vizual va verbal salohiyatini qo'zg'atuvchi va ularni birgalikda sintez qiluvchi kuchli pedagogik instrument.

Sharq bolalar adabiyotining eng qadimgi namoyandalaridan biri – milloddan avval II asrda yuzaga kelgan "Kalila va Dimna" asarini biz Sharqdagi ilk rasmi bolalar kitobi, deya olshimiz mumkin. Rasmi kitoblarga bolaning ilk o'qish tajribasi deb yondashish to'g'ri emas. Chunki oxirgi asr o'zgarishlari tufayli rasmi kitoblarga munosabat ularning mukammalligi, matn va rasmlarning munosabati, mavzularning murakkabligi tufayli keskin o'zgarib ketdi. Rasmi kitoblar xuddi boshqa kitoblar singari o'quvchining bilimi, qiziqishi va tajribasini boyitishi, kengaytirishi va chuqurlashtirishi mumkin [13]. Rasmi kitoblarda biz ba'zida so'zlar rasm qila olmaydigan va, aksincha, rasm so'zlar qila olmaydigan narsalarни ko'rishimiz mumkin [14]. Rasmi kitoblarda matn va rasmlar bir-birini inkor etishi yoki muqobil ma'lumot berishi mumkin. Bolada erta savodxonlik rivojlanar ekan, rasmi kitoblar uning kitob bilan tanishishining ilk tajribasi bo'ladi. Bunda rasmi kitoblar noodatiy matn va rasm munosabatini namoyon qiladi [15].

Rasmi kitoblarni boshqa janrlardan ajratib turuvchi asosiy narsa bu – vizual va verbal qabul qilishning kombinatsiyasi talab etilishidir [8]. Zamonaviy rasmi kitoblarning vizual va verbal jihatlari fikr uyg'otuvchi, bir necha tushunish qoplamiga ega va bolalarda tanqidiy fikrflash, tafakkur va kreativlikni rivojlantiruvchi instrument hisoblanadi [16]. Rasmi kitob vizual va verbal qabul qilinsagina, uning barcha qiymati namoyon bo'la oladi [17]. Rasm va matnning munosabatini Nikolajeva, Nodelman, Golden juda chuqur tasvirlab bergenlar [18]. Rasm va matn bir-biriga chegara o'rnatgan holda bir-birini to'ldirib turadi. So'z bilan matnning o'quvchiga bo'ladigan ta'sir kuchi muhim emas, muhim rasm va matnning bir-biri bilan kelishushi va bir-birini o'zgartirishga ta'siri, ya'ni sinergiya holati bo'lishi ko'zda tutiladi. Rasmi kitobda matn va rasm bir-birisiz to'liq bo'la olmaydi.



1-rasm. Kartonli rasmlı kitob. "Where's Spot" (Eric Hill).



The pilot climbed out of the wrecked plane. She looked at the torn-off wheel and broken wing. Biff and Wilf raced up. The pilot took off her goggles and looked at them.

"I've had better landings," she said.

"I know you!" said Biff.


It was Princess Aisha. Biff and Wilf had met her before in another adventure.

"Goodness," said Aisha. "It's you again."

"Why have you crashed?" asked Biff.

"I didn't mean to," said Aisha. "My sister, Lisa, has been kidnapped. I've come to rescue her."

3-rasm. O'qishni o'rgatadigan rasmlı kitob. "Green Island" (Roderick Hunt and Alex Brichta).



5-rasm. Badiiy rasmlı kitob. "Uyatchan fil" (Dinara Muminova).

*Rasmlı kitoblarning maqsadi nima?* Maqsad: 1) bolaga dunyoni anglash; 2) bolaga boshqalarni bilish; 3) bolaga o'zini bilish; 4) bolaga etikaga oid bilimlarni olishga yordam berishdan iborat [19].

Bugungi kun dolzarb masalalaridan biri bo'lmish tolerantlik haqida gapirar ekanmiz, aynan rasmlı kitoblar kichik yoshdagи bolalarda inkluziya va etnik ozchilikka nisbatan to'g'ri munosabat shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi [20].

Rasmlı kitoblarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda ularni bir necha turlarga ajratish mumkin:

*Kartonli rasmlı kitoblar* – chaqaloqlar uchun mo'ljalangan bo'lib, hikoyadan ko'ra ko'proq rasmdan iborat bo'ladi (1-rasm).


*Konseptual rasmlı kitoblar* – bolalarni konsepsiylar



2-rasm. Konseptual rasmlı kitob. "Mening ALIFBE kitobim" (Dinara Muminova).



4-rasm. Ilmiy rasmlı kitob. "Yulduz nega tushmaydi?" (Dinara Muminova).



6-rasm. Matnsiz rasmlı kitob. "Summer" (Suzy Lee).

bilan tanishtiradi (ranglar, alifbe, shakllar, buyumlar va h.k.). Konseptual kitoblar bolalarda nafaqat kognitiv faoliyatni rivojlantiradi, balki ularga yangi bilimlarni ham beradi, bu Vimmelbuhrlarga ham tegishli [12] (2-rasm).

*O'qishni o'rgatadigan rasmlı kitoblar*. Bu kitoblarning asosiy maqsadi – bolalarni qiziqarli kontentga jalb qilgan holda o'qishga o'rgatish. Bunday kitoblardagi gaplar o'ta sodda so'zlardan iborat bo'ladi (3-rasm).

*Ilmiy (Non-fiction) rasmlı kitoblar.* Bunda bolalarga ensiklopedik, atrof-muhit haqidagi bilimlar rasmlar va hikoya yordamida oson shaklda taqdim etiladi. Ilmiy rasmlı kitoblarning o'zi bir necha turlarga ajratiladi (4-rasm).

*Badiiy (Fiction) rasmlı kitoblar.* Bunda badiiy hikoya rasmlar bilan uyg'unlashgan holda taqdim etiladi (5-rasm).

*Matnsiz (Silencebook) rasmlı kitoblar.* Bunda so'zlar juda kam bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi. Bu toifaga *Vimmelbuh* turdag'i kitoblarni ham kiritish mumkin (6-rasm).

Rasmlı kitoblarni o'rganishda ko'p tarmoqli yondashuv talab etiladi, ya'ni rasmlı kitoblarni ilmiy o'rganishda adabiyot, san'at, san'at tarixi, lingvistika, filologiya, kognitiv psixologiya, sotsiologiya, neyrofiziologiya,

rasm nazariyasi kabi fanlarning integratsiyasi talab etiladi [22].

Xulosa qilar ekanmiz, pedagogik jarayonda rasmlı kitoblarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan har qanday pedagogik faoliyat yurutishda rasmlı kitoblar samarali qurol bo'la oladi [23]. Chunki rasmlı kitoblar, avvalambor, bolaning qiziqishini tortadi, buning yordamida esa bilim berish osonroq va foydaliroq bo'ladi. Rasm orqali bola kitob mazmunini chuqurroq anglaydi. Bugun O'zbekistonda ta'lif sohasi jahon standartlariga tenglashtirilayotgan bir pallada, kelajakda yoshlarmiz dunyoning nufuzli universitetlari talabalari bo'lishiga va Nobel mukofoti sari intilayotganmizda inson rivojlanishining eng muhim pallasi bo'l mish bolalik uchun yaratilgan rasmlı kitob fenomeniga e'tibor qaratmasak bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2019-yildagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lif samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4467-sonli Qarori.
2. Leahy M., Fitzpatrick N. Early readers and academic success // Journal of Educational and Developmental Psychology, 2017, 7. 87. 10.5539/jedp.v7n2p87.
3. Beckett S.L. Crossover picturebooks: a genre for all ages. – Taylor & Francis, 2013. 23.
4. Sullivan A., Brown M. Social inequalities in cognitive scores at age 16: The role of reading. 2013.
5. Mari'a Cecilia Silva-Díaz. Picturebooks, lies and mindreading // Nordic Journal of ChildLit Aesthetics, 2015, Vol. 6. – Spain: Gretel Research Group, Universitat Auto`noma de Barcelona.
6. Publisher book sales revenue from children's books in the United Kingdom (UK) from 2009 to 2022. <https://www.statista.com/statistics/305663/book-sales-revenue-from-children-s-books-in-the-uk/>
7. Children's book sales statistics Jan. 30, 2023. <https://wordsrated.com/children-book-sales/>
8. Nikolajeva M., Scott C. How picturebooks work (1st ed.). – Routledge, 2001. <https://doi.org/10.4324/9780203960615>.
9. Chukovsky K. From two to five (Rev. ed., Morton M., Trans.). – Berkeley: University of California Press, 1963.
10. Albers P. Theorizing vizual representation in children's literature // Journal of Literacy Research, 2008, 40(2), 163–200.
11. Nodelman P. Words about pictures: the narrative art of children's picturebooks. – Athens, Georgia: University of Georgia Press, 1988.
12. Campbell A.J. Grammatical man: information, entropy, language, and life. – Simon and Schuster, 1982.
13. Cianciolo Patricia J. Picture books for children. – American Library Association, 1997.
14. Mohr K.A.J. Children's choices for recreational reading: a three-part investigation of selection preferences, rationales, and processes // Journal of Literacy Research, 2006, 38(1), 81–104. [https://doi.org/10.1207/s15548430jlr3801\\_4](https://doi.org/10.1207/s15548430jlr3801_4).
15. Kiefer B. Envisioning experience: the potential of picture books // Publishing Research Quarterly, 1991, 7, 63–75. <https://doi.org/10.1007/BF02678162>.
16. Dolan Anne M. Intercultural education, picturebooks and refugees: approaches for language teachers // CLEJournal, 2014, Vol. 2, Iss. 1.
17. Marantz S.S., Marantz K.A. The art of children's picture books: a selective reference guide, 2nd edition (1st ed.). – Routledge, 1995. <https://doi.org/10.4324/9781315047850>.
18. Golden Joanne M. The narrative symbol in childhood literature: explorations in the construction of text. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1990.
19. Nikolajeva M. Reading for learning: cognitive approaches to children's literature. – John Benjamins, 2014.
20. Arizpe E., Styles M. Children reading picturebooks: interpreting visual texts (2nd ed.). – Routledge, 2015. <https://doi.org/10.4324/9781315683911>.
21. DeLoache J.S., DeMendoza O.A. Joint picturebook interactions of mothers and 1-year-old children // British Journal of Developmental Psychology, 1987, 5(2), 111–123. <https://doi.org/10.1111/j.2044-835X.1987.tb01047.x>.
22. Colomer T., Bettina K.-M., Cecilia S.-D. New Directions in picturebook research. – Routledge, 2012.
23. Albright L.K. Bringing the Ice Maiden to life: engaging adolescents in learning through picture book read-alouds in content areas // Journal of Adolescent & Adult Literacy, 2002, 45, 418–428.